

2025-yil Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining faoliyati to'g'risidagi HISOBOT

Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi (KQKMT) faoliyatining oldingi tahlili natijalari.

№	Samaradorlik ko‘rsatkichi/ Hisoblash metodikasi	Jarayon samaradorlik mezoni		Natija
		Maqsad	Chegara	
1. KQKMT rejalashtirish				
1.1.	Korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga erishish foizi (Erishilgan maqsadlar soni / Umumiy maqsadlar soni) * 100%	100%	90%	100 % (belgilangan muddatda)
1.2.	Korrupsiya xavfiga qarshi kurashish bo‘yicha harakatlar rejasini qayta ko‘rib chiqish / Har bir yil uchun harakatlar rejasini qayta ko‘rib chiqish soni	1 dan kam emas	O‘tkazilmadi	1
2. KQKMT talablarini tatbiq qilish va ishchi holatda saqlash				
2.1.	Kontragentlar kompleks tekshiruvini belgilangan muddatlarda bajarilishi	10 kalendar kunigacha	30 kalendar kunigacha	8 kun ichida
2.2.	Korrupsiyaga oid aloqa kanallari orqali qabul qilingan habarlarga oid dastlabki tekshiruv o‘tkazish muddati	3 kun	5 kun	3 kun
2.3.	Korrupsiyaga oid topshirilgan testlar bo‘yicha xodimlarning natijalari	100%	55% kam emas	65%
3. KQKMT monitoringi va baholash				
3.1.	KQKMT faoliyatiga oid ichki hujjatlarni aktualligini nazorat qilish	1 marotaba	O‘tkazilmagan	1
3.2.	O‘z vaqtida taqdim etilgan ma’lumotlar foizi / (O‘z vaqtida taqdim etilgan ma’lumotlarning umumiy miqdori / Barcha ma’lumotlarning miqdori) * 100%	100%	90%	100%
4. KQKMTning amal qilishi va takomillashtirishning tahlili				
4.1.	KQKMT faoliyatini tahlil qilish bo‘yicha Bank Boshqaruvi va Bank Kengashi qarorlarni o‘z vaqtida bajarish / O‘z vaqtida bajarilmagan tadbirlar soni	KQKMT faoliyatini tahlil qilish bo‘yicha barcha qarorlarni o‘z vaqtida bajarish	Rejalashtirilgan bajarish sanasidan boshlab 1 oydan ortiq muddatga ega bo‘lgan 1 tadbirdan ortiq emas	Barchasi o‘z vaqtida bajarildi

KQKMT bilan bog‘liq tashqi va ichki omillarning o‘zgarishi, xavf va imkoniyatlar bilan bog‘liq harakatlar samaradorligi.

Omil nomi	Ta’siri (ahamiyati)	Tavsiya etilgan harakat	Rejalashtirilgan davr	Samaradorlik
Iqlim o‘zgarishining KQKMTning samaradorligiga ta’siri	Ha	Xavf-xatarlarni boshqarish	2025-yil	100%

Audit natijalari

Hisobot davrida 2025-yil 20-yanvarda tasdiqlangan ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiq 2025-yil uchun KQKMT ichki audit dasturiga asosan ichki audit to‘liq hajmda o‘tkazildi. Audit natijalari ichki audit hisoboti shaklida rasmiylashtirildi.

Tekshiruvlar natijasida 6 ta nomuvofiqlik aniqlandi. Har bir nomuvofiqlikning sabablari va ular uchun tuzatishlar ishlab chiqildi. Barcha nomuvofiqliklar belgilangan muddatlarda bartaraf etildi.

Amalga oshirilgan tuzatishlar va monitoring natijalariga ko‘ra aniqlangan nomuvofiqliklarning qayta paydo bo‘lishi qayd etilmaganligi aniqlandi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi keyingi ichki audit davomida aniqlanadi.

Asosiy nomuvofiqliklar KQKMT talablarini bilish va uni qo‘llash bilan bog‘liqligi ma’lum bo‘ldi. Hujjatlarni loyihalashda kichik nomuvofiqliklar mavjudligi aniqlandi.

Korrupsiya sodir bo‘lgan taqdirda uning salbiy oqibatlari to‘g‘risida bank xodimlari, mijozlar va biznes hamkorlari o‘rtasida xabardor qilish mexanizmlarini takomillashtirish tavsiya etiladi (Rahbariyat tomonidan videomurojaat).

KQKMT sohasidagi maqsadlarga erishish darajasi

KQKMT sohasidagi maqsadlarga erishish holati: 2025-yil uchun rejalashtirilgan 9 ta maqsaddan 9 tasi o‘z vaqtida bajarildi. Davr yakunida barcha rejalashtirilgan tadbirlar o‘z vaqtida ijrochilar tomonidan amalga oshirildi.

KQKMTning 2025-yil holatiga samaradorligini monitoring qilish natijalari tahlili:

№	Samaradorlik ko‘rsatkichi/ Hisoblash metodikasi	Jarayon samaradorlik mezon		Natija
		Maqsad	Chegara	
5. KQKMT rejalashtirish				
5.1.	Korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga erishish foizi (Erishilgan maqsadlar soni / Umumiy maqsadlar soni) * 100%	100%	90%	100 % (belgilangan muddatda)

5.2.	Korrupsiya xavfiga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar rejasini qayta ko'rib chiqish / Har bir yil uchun harakatlar rejasini qayta ko'rib chiqish soni	1 dan kam emas	O'tkazilmadi	2
6. KQKMT talablarini tatbiq qilish va ishchi holatda saqlash				
6.1.	Kontragentlar kompleks tekshiruvini belgilangan muddatlarda bajarilishi	10 kalendar kunigacha	30 kalendar kunigacha	8 kun ichida
6.2.	Korrupsiyaga oid aloqa kanallari orqali qabul qilingan habarlarga oid dastlabki tekshiruv o'tkazish muddati	3 kun	5 kun	3 kun
6.3.	Korrupsiyaga oid topshirilgan testlar bo'yicha xodimlarning natijalari	100%	55% kam emas	90%
7. KQKMT monitoringi va baholash				
7.1.	KQKMT faoliyatiga oid ichki hujjatlarni aktualligini nazorat qilish	Har chorakda	1 marotaba	4
7.2.	O'z vaqtida taqdim etilgan ma'lumotlar foizi / (O'z vaqtida taqdim etilgan ma'lumotlarning umumiy miqdori / Barcha ma'lumotlarning miqdori) * 100%	100%	90%	100%
8. KQKMTning amal qilishi va takomillashtirishning tahlili				
8.1.	KQKMT faoliyatini tahlil qilish bo'yicha Bank Boshqaruvi va Bank Kengashi qarorlarni o'z vaqtida bajarish / O'z vaqtida bajarilmagan tadbirlar soni	KQKMT faoliyatini tahlil qilish bo'yicha barcha qarorlarni o'z vaqtida bajarish	Rejalashtirilgan bajarish sanasidan boshlab 1 oydan ortiq muddatga ega bo'lgan 1 tadbirdan ortiq emas	Barchasi o'z vaqtida bajarildi
8.2.	KQKMT faoliyatini tahlil qilish amalga oshirilishi / O'z vaqtida kiritilmagan hisobot sababli tahlil kechiktirilishi	10 kalendar kunigacha	30 kalendar kunigacha	O'z vaqtida

I. Korruptsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy ma'lumot:

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi va "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining **2025-yil uchun** Korruptsiyaga qarshi kurashish dasturiga asosan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Hisobot davrida korruptsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar dasturi va tasdiqlangan reja asosida **Bosh ofis, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislarida rejalashtirilgan tadbirlar ijrosi ta'minlandi.

"Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar, sohada inson omilini qisqartirilishi, raqamlashtirish va transformatsiya jarayonlari natijasida joriy yilning 30-aprelida "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Gretsiyaning **"QMS Cert" xalqaro sertifikatlovchi organi** va uning rasmiy hamkori **"Management Certification" tashkiloti** tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo'yicha **ISO 37001:2016** xalqaro standartiga muvofiqligi sertifikatiga ega bo'ldi. Natijada "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Xalqaro e'tirofga sazovor bo'lib, bankning korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimiga muvofiqligi rasmiy **International Accreditation Forum** (iafcertsearch.org) sahifasida qayd etildi.

Bank tizimida korruptsiyaviy omillar tizimli tahlil qilinib, tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samarali tashkil etilganligi yuzasidan Bankning hududiy Bank xizmatlari markazlari va Bank xizmatlari ofislarining **reyting tizimi** ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Bundan maqsad, ijobiy natija qayd etgan mas'ullarni rag'batlantirish, aksincha salbiy natijalar aniqlangan mas'ullarga nisbatan choralar ko'rish maqsad qilib olindi.

Bank xaridlarini amalga oshirish jarayonida va xizmat ko'rsatishda korruptsiyaviy xatarlar hamda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish yuzasidan manzilli profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Korruptsiya haqida xabar bergan xodimlar, mijozlar va fuqarolar uchun maxsus rag'batlantirish tizimi joriy qilinib, ularni **ta'qibdan himoya qilish** va **maxfiylik kafolatlari** bank ichki qoidalarida aniq belgilandi va nazoratga olindi. Shu bilan birga, Bank xodimlari uchun sovg'alar, mehmondo'stlik va xizmat ko'rsatishdagi axloqiy chegaralarga oid bank ichki reglamenti ishlab chiqildi va Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlandi. Mijozlarga qulayliklar yaratish maqsadida, bankning rasmiy veb-sayti va mobil ilovalarida **"Fikr bildiring" bo'limi** orqali aholi va tadbirkorlarga bank xizmatlari, korruptsiyaviy holatlar, to'siqlar va xizmat sifati yuzasidan fikr bildirish imkoni yaratilib, kelib tushgan fikrlarni tahlil qilib, chora ko'rish mexanizmlari yo'lga qo'yildi. Bankning barcha **15 ta** bank xizmatlar markazi, **51 ta** Bank xizmatlari ofislarida, birlashtirilgan mahallalarda va **Toshkent metropolitenining 50ga yaqin** bekatlaridagi "Turon kitob bekatida" bank burchaklari tashkil etilib aholi va tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlar shartlari, ajratish tartibi, monitoring, foizlar, qaytarish muddatlari hamda murojaat qilish mexanizmlari to'g'risida to'liq va shaffof axborot bilan ta'minlandi.

Bankning ichki dasturiy ta'minot bazalari **"bank-kredit.uz"** platformasiga to'liq integratsiya qilindi. Bankning imtiyozli kredit turlari, talab etiladigan hujjatlar, ajratish mezonlari va qaror qabul qilish natijalarini **"bank-kredit.uz"** orqali shaffof aks ettirilishini ta'minlandi. Shuningdek, **Bankxizmatlari.uz** portali orqali fuqarolarimiz "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining omonatlar, avtokreditlar, ipoteka kreditlari, mikroqarzlar, ta'lim kreditlari, iste'mol kreditlari, bank kartalari, bankomatlar haqidagi batafsil ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatlari yaratilgan. **Oilakredit.uz** portali orqali – oilaviy tadbirkorlik bo'yicha mijozlar uchun kredit olish bo'yicha onlayn ariza berish imkoni yaratilgan. **Talim-kredit.mf.uz** orqali – ta'lim krediti olish uchun ariza jo'natish mumkin.

Joriy hisobot davrida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash yuzasidan respublikamiz bo'yicha **anonim so'rovlar o'tkazildi**. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan so'rov natijalari tahlil qilinib, hududlar kesimida umumlashtirildi va aniqlangan muammolar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar Bank boshqaruviga kiritildi. So'rov natijalari asosida korrupsiyaviy xavfi yuqori bo'lgan xizmatlar va funksiyalar bo'yicha alohida profilaktik tadbirlar o'tkazilishi belgilandi va keng muhokama qilindi.

Keng jamoatchilikka bank tizimida Korrupsiyaning oldini olish va uning salbiy oqibatlarini yetkazish maqsadida tahliliy maqolalar tayyorlanib, respublika miqyosidagi **“Mahalla”** gazetasida - **Korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashiladi**, **“Biznes Daily” (Birja)** gazetasida - **“Turonbank” ATB: ochiqlik va shaffoflik, ishonch hamda hisobdorlik amalda** va **“Yangi Farg'ona”** gazetasida - **Bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurash - sohadagi islohotlar va zamonaviy yondashuvlar** sarlavhalari ostida chop etildi. Maqolalarda bank tizimida korrupsiyaning oldini olish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, bank tizimida raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida batafsil ma'lumotlar taqdim etildi.

Bankning Bosh ofis hamda barcha hududiy tarkibiy bo'linmalari BXM va BXOlarida o'quv seminarlar tashkil etilib barcha tarkibiy bo'linmalar xodimlari bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari bo'yicha o'qitildi. Xodimlarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash maqsadida **1,5 ming nafarga** yaqin xodimlar orasida test sinovlari o'tkazildi.

Milliy qonunchilik va xalqaro standart talablari asosida bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimlaridan **2 nafari** O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va BMT Taraqqiyot dasturining Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan **“O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi milliy ekotizmni mustahkamlash”** loyihasi doirasidagi o'quv kursida, Bosh ofis va BXM xodimlaridan **50 nafari (ISO 37001:2025)** CERT akademiyasida, bankning hududiy va BXM Komplaens ofitserlaridan **31 nafari** Moliya bank xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoqlararo institutida, Korrupsiya xavfi mavjud lavozimda ishlovchi, mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va bankka yangi ishga qabul qilingan xodimlardan **90 nafari** **“Korrupsiyaga qarshi virtual akademiya”** platformasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tashkil etilgan maxsus chuqurlashtirilgan o'quv kurslarida o'qitilib, malakasi oshirildi hamda milliy va xalqaro sertifikatlarga ega bo'lishi ta'minlandi.

Ayni paytda bankning barcha mas'ul xodimlari, ishga yangi qabul qilingan va korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlarda faoliyat yuritayotgan **1,5 ming nafarga** yaqin xodimlarning **“Korrupsiyaga qarshi virtual akademiya”** platformasida o'qitilishi ta'minlanib, barcha xodimlarning o'qitilishi yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Bankning Komplaens ofitserlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bank xodimlariga o'tkazilgan o'quv seminarlarida barcha xodimlar ishtiroki ta'minlandi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tajriba almashish, xodimlarning bilimlarini oshirish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Markaziy bank va boshqa mutasaddi tashkilotlar** bilan hamkorlikda bank tizimida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va Markaziy bankning 2025-yil 6-avgustdagi 1/11-sonli qo'shma qarori asosida tasdiqlangan "Davlat ulushi mavjud tijorat banklarida korruptsiyani oldini olish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosi o'z vaqtida ta'minlandi. Yo'l xaritasi ijrosi yuzasidan ma'lumotlar Bankning barcha tarkibiy va hududiy (tarkibiy) bo'linmalari kesimida umumlashtirilib, har oy yakunida Markaziy bankka taqdim etib borildi. 9-dekabr **Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni** munosabati bilan Markaziy bank va davlat tijorat banklari ishtirokida korruptsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish masalalariga bag'ishlangan **matbuot anjumani** o'tkazildi. Tadbirda hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar va bank tizimida **ochiqlikni ta'minlash** va korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi.

Xususan, joriy yil davomida quyidagilar amalga oshirilgani alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Joriy yil yanvar oyida Bank Matbuot kotibi **Sh.F.Quchqorov** ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida brifing o'tkazilib, "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bank tomonidan yil davomida korruptsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobot taqdim etildi;

Fevral oyida Milliy TVda tashkil etilgan "Gapirmasak bo'lmaydi" ko'rsatuvida korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillar, ularga qarshi kurashish va ularni oldini olish choralari yuzasidan keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida, bank vakillari faol ishtirok etishdi. Ko'rsatuvning "Korruptsiyaga qarshi kurashish" mavzusiga bag'ishlangan sonida Bank Matbuot kotibi **Sh.F.Quchqorov** hamda Komplaens nazorat departamenti bosh mutaxassisi **X.H.Zikirov** ishtirok etishdi.

Mart oyida CERT Akademiyasi mutaxassislari tomonidan **"ISO 37001:2016 standarti talablari** bo'yicha xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizmi" mavzusida bank rahbar va mas'ul xodimlari o'qitildi, shuningdek, mart oyida **Surxandaryo viloyat prokuraturasi mas'ul xodimlari** ishtirokida korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar va javobgarlik masalalari yuzasidan Surxandaryo BXM rahbar va xodimlariga tushuntirish ishlari olib borildi;

Aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda Bank Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari v.b. **S.T. Kaldibayev** boshchiligidan Bankning barcha departament direktorlari va bosh bank xodimlari hamda hududiy BXM va BXO rahbar hamda xodimlariga "Turonbank" ATBda korruptsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish masalalari hamda 2025-yil 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda ilgari surilgan topshiriqlarning ijrosi ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar" mavzusida tadbir o'tkazildi;

May oyida CERT Akademiyasi mutaxassislari tomonidan **"ISO 37001:2025 standarti talablari** bo'yicha xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizmi" mavzusida bank rahbar xodimlari o'qitildi;

Iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Bank tizimida korruptsiyani oldini olish va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risida"gi yig'ilishda Bank Boshqaruv Raisi o'rinbosari v.b. **D.A.Rustamov** va Komplaens nazorat departamenti direktori **O'I.Tangirov** ishtirok etishdi;

Iyul oyida TMI huzuridagi Moliya bank xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoqlararo instituti va O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda Bankning Komplaens xodimlari uchun maxsus **3 kunlik o'quv-seminari** tashkil etildi;

Avgust oyida mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va BMT Taraqqiyot dasturining Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan “O‘zbekistonda Korruptsiyaga qarshi milliy ekotizmni mustahkamlash” loyihasi doirasida tashkillashtirilgan “Davlat organlari va tashkilotlarida korruptsiyaning oldini olish va “komplaens nazorat” tizimi samaradorligini oshirish” mavzusidagi o‘quv seminari o‘tkazilib, unda bank vakillari Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimlari **S.Sh.Kamilov** va **X.H.Zikirov** ham faol ishtirok etishdi;

Sentabr oyida Bank Boshqaruv Raisi v.b. **Ch.S.Mirzayev** tomonidan bankning barcha rahbar va xodimlari ishtirokida “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tizimida Korruptsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek Bank Odob-axloq qoidalariga rioya qilish yuzasidan yig‘ilish o‘tkazilib, ushbu illatga barham berish yuzasidan yana bir murajaat qilindi;

Oktabr oyida Bankning bosh ofisi o‘quv zalida **Toshkent shahar bank xizmatlari markazi**ning barcha xodimlari uchun Komplaens ofitserlar ishtirokida navbatdagi maxsus o‘quv kursi tashkil etildi;

Noyabr oyida Farg‘ona shahrida OAV va keng jamoatchilik ishtirokida Farg‘ona viloyatida korruptsiyaga qarshi kurashish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, Bankning **Farg‘ona bank xizmatlari markazida** “Korruptsiyasiz bank – ishonchli moliya tizimi” shiori asosida tadbir o‘tkazildi va **Farg‘ona 24** telekanali orqali keng jamoatchilikka yetkazildi;

Dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda “9-dekabr Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorruptsiya oyligi doirasida OAV, jurnalistlar, blogerlar, jamoatchilik vakillari, yoshlar, talabalar, bank mijozlari va xodimlari ishtirokida “**Ochiq eshiklar kuni**” tadbiri o‘tkazildi. Tadbir tafsilotlari keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankida korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan faoliyat natijalari OAVlarda, xususan, **YuzUz (Yangi O‘zbekiston)**, **UzReport TV**, **Bankers.uz** va Bankning rasmiy sahifalari YouTube, Telegram, Facebook, Instagram orqali yoritildi. “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan 2025-yilda transformatsiya yo‘nalishida amalga oshiriladigan ishlar Yo‘l xaritasida Korruptsiyaga va manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan vazifalar to‘liq bajarildi.

Shuningdek, joriy hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-sonli qarori hamda “Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-sonli farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Turonbank” ATB tizimida korruptsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha bankning ichki nazorat bo‘linmasi Bank Kuzatuv kengashining 11-noyabrdagi K-66-sonli Qaroriga muvofiq, **(Korruptsiyaga qarshi kurashish komplaens maxsus boshqarmasi)** musatqil bank tuzilmasi Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati sifatida tashkil etildi. Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmatiga Bank tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va talablari bo‘yicha nazorat va monitoring qilish jarayonlarini amalga oshirishda raqamli texnologiyalari (suniy intellekt)dan foydalanish amaliyotini takomillashtirish yuzasidan barcha zaruriy shart-sharoitlar bilan ta‘minlandi.

II. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillar:

Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining tegishli qarorlari bilan "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo'yicha quyidagi ichki qoidalar tasdiqlangan va ular hozirda aktual holatda:

- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatining Nizomi;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish Siyosati";
- "Turonbank" ATB tizimida xodimlarning odob-axloq Qoidalari;
- "Turonbank" ATBning manfaatlar to'qnashuviga oid Siyosati;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankida Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashishgan xodimlarni rag'batlantirish to'g'risida Nizom;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida tezkor liniya Siyosati;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Tartibi";
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida xodimlarni korporativ etika va odob-axloq qoidalariga rioya etilishi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish to'g'risida Yo'riqnoma;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining nomuvofiqliklar va kuzatuvchi choralarni boshqarish Tartibi;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo'yicha Qo'llanma;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankida biznes hamkorlarni kompleks tekshiruvdan o'tkazishga oid Yo'riqnoma;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha ichki Tartib;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini ichki auditini o'tkazish Tartibi;
- "Turonbank" ATBning Odob-axloq komissiyasi Nizomi;
- "Turonbank" ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglament;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma";
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom;
- "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida xaridlarni amalga oshirish va monitoring qilish Siyosati.

Yuqoridagi barcha bank ichki hujjatlari bankning rasmiy veb-sayti hamda "EHAT" maxsus dasturiga joylashtirilgan va barcha xodimlar ulardan ish faoliyatida foydalanish imkoniyatiga ega.

III. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari va ular bo'yicha chora-tadbirlar holati:




Bank tomonidan tizimdagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalar va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti" (ro'yxat raqami: 3383, 31.08.2022-y.) hamda "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha ichki Tartib (ro'yxat raqami: 1209, 25.12.2024-y.)ga asosan amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining taklif va tavsiyalari asosida Bosh ofis, barcha BXM va BXO tarkibiy bo'linmalari kesimida Bankning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqildi va Bankning korruptsiyaga qarshi kurashish dasturi tasdiqlandi. Baholash jarayonida Bankning **Bosh ofis 26 ta departament va mustaqil boshqarmalari, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislari tarkibiy bo'linmalaridagi korruptsiyaviy xavf-xatarlar baholashdan o'tkazildi.

Bank tizimida Bosh ofis tarkibiy bo'linmalari va hududiy bank xizmatlari (BXM va BXOlar) kesimida Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijasida **85 ta xavf** aniqlandi. Ulardan **51 tasi** maqbul (past xavf), **34 tasi** o'rta xavf hisoblanadi va yuqori xavf aniqlanmadi. Hisobot davrida Bank faoliyati kompleks tahlil qilinishi orqali yuqoridagi korruptsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar belgilandi hamda bank tizimida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish, ularni samarali oldini olish yuzasidan tegishli choralar ko'rilganligi natijasida Bank faoliyati uchun yuqori bo'lgan qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar bartaraf etildi, shuningdek, o'rta bo'lgan qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar yuqori korruptsiyaviy xavf-xatarlarga o'tmasligi ularni past korruptsiyaviy xavf-xatarlarga o'tkazish hamda yuzaga kelishi mumkin korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ularni kamaytirish yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Bank tizimida korruptsiyaviy omillarni aniqlash, baholash va bartaraf etish jarayonida tegishli funktsiyalar raqamlashtirishirildi;
- Korruptsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bank ichki qoidalarini takomillashtirildi;
- Tizimda inson omilini qisqartirish va tegishli tartib-taomillar hamda funktsiyalarni raqamlashtirish jadal olib borildi;
- Faoliyat bo'yicha ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish orqali bartaraf etish mexanizmlari yanada kuchaytirildi;
- Korruptsiyaviy xavf-xatarlar mavjud lavozimda faoliyat olib boruvchi bank rahbar va xodimlari ISO 37001 xalqaro standartlari asosida o'qitildi;
- Tashqi ekspertlar tomonidan Bankning korruptsiyaviy xavf-xatarlari baholashdan o'tkazildi.

Natijada o'rta qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar soni **10 taga** kamaytirildi. Asosiy xavflar Bank xodimi tomonidan o'z mansab vakolatlarini suiste'mol qilgan holda Bank sirini uchinchi shaxslarga taqdim etishi, Bank xodimi tomonidan o'z mansab vakolatlarini suiste'mol qilgan holda bank kollegial organining tegishli ijobiy qarori mavjud bo'lmagan debitor (to'lovchi) majburiyatlari bo'yicha operatsiyalarini amalga oshirish va kredit olish uchun mijozlardan kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish jarayonini asossiz ravishda kechiktirish va rad yetish jarayonlari bilan bog'liq. Tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng, o'rta darajadagi va yuqori xavflar past darajaga tushirildi hamda chora tadbirlar samarali deb baholandi.

Bank tizimidagi Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish quyidagi jadvalda keltirilgan:



IV. Amalga oshirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar:

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

Bank tizimida Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan "Turonbank" ATBning manfaatlar to'qnashuviga oid Siyosati hamda Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizomi tasdiqlangan. Mazkur hujjatlar bilan bank tizimida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf etish tartiblari, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishning qoidalari belgilangan.

Bank tizimida manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelishini oldini olish maqsadida quyidagi holatlarda deklaratsiyalar taqdim etilishi belgilangan:

- vakant bo'lgan bo'sh ish o'rinlarga nomzodlarni ishga qabul qilish;
- xodimlarni lavozimga tayinlash va (yoki) rotatsiya qilish;
- har yillik deklaratsiyalash (har yili 15-fevral kuniga qadar);
- mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan holat(lar)da.

2025-yil mobaynida bank tizimidagi xodimlar, shu jumladan, rahbar xodimlar tomonidan Bankning avtomatlashtirilgan EHAT maxsus dasturi platformasi orqali manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida deklaratsiyalarni taqdim etishgan. Bank **Kuzatuv Kengashi, Boshqaruv a‘zolari, Bosh ofisning 26 ta departament va mustaqil boshqarmalari, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislari tarkibiy bo‘linmalarining **1,5 ming nafarga** yaqin rahbar va xodimlari tomonidan to‘ldirilgan deklaratsiyalar tahlili natijalariga ko‘ra bank tizimida **42 ta** holatda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjud ekanligi aniqlandi va ushbu holatlarni bartaraf etish hamda kelgusida mavjud manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmaslik yuzasidan barcha hujjatlar Bank Odob-axloq komissiyasi muhokamasiga kiritilib, barcha xodimlar ogohlantirildi va belgilangan tartibda tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasining Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonuni (*yangi tahriri*) asosida Bank tizimida Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom yangi tahrirda ishlab chiqildi hamda bank tizimida xodimlarning manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi yuzasidan tushuntirish va targ‘ibot tadbirlari doimiy ravishda amalga oshirib borildi. Xususan, joriy yilning iyul oyida **O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda** Bank xodimlariga “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun va mohiyatini tushuntirish yuzasidan o‘quv seminari tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalarga kiritish.

Joriy umumiy hisobot davrida korrupsiyaga qarshi qoidalarni Bankning xo‘jalik shartnomalariga kiritish bo‘yicha, shu jumladan Bosh bank **26 ta departament va mustaqil boshqarmalari, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislari tarkibiy bo‘linmalari kesimidagi shartnomalar korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida ekspertizadan o‘tkazildi.

Shu bilan birga, bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlar:

“Turonbank” ATB tizimida bank hisobravag‘i shartnomasi va mijoz hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalarni hamda bank tizimida omonat, plastik karta, kredit va kredit ta‘minoti hamda bank va mijoz o‘rtasidagi bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalarni tuzish bo‘yicha tavsiyalarda;

Kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga;

Xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalari;

Tarkibiy bo‘linmalar Nizomi va xodimlarning lavozim yo‘riqnomalariga kiritildi.

Shuningdek, 2025-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati va Bank yuridik xizmati Metodologiya ishlarini muvofiqlashtirish boshqarmasi tomonidan Bank tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan, Bank Kuzatuv kengashi va/yoki Boshqaruv tomonidan tasdiqlangan **74 ta yangi ichki qoida loyihalari** o‘rnatilgan tartibda ekspertizadan o‘tkazilib, ro‘yxatga olindi. Shu bilan birga, amalda bo‘lgan **38 ta ichki qoidalarga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar loyihalari** ham ekspertizadan o‘tkazilib, ro‘yxatga kiritildi. Ushbu ichki qoidalarning barchasi Bank yuridik xizmati tomonidan belgilangan tartibda huquqiy ekspertizadan o‘tkazilgan bo‘lib, **74 ta yangi ichki qoida loyihalari** hamda amalda bo‘lgan **38 ta ichki qoidalarga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar loyihalarida** korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga keltiruvchi omillar mavjud emasligi o‘rganilib ekspertiza xulosalari taqdim etildi.

Kontragentlarni tekshirish holati.

O'tkaziladigan har bir davlat xaridida ishtirokchilariga teng imkoniyatlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom raqobatni vujudga keltirish maqsadida Bank faoliyatida kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni ularning manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yish ehtimoli, Bank tizimi xodimlari bilan affillan(ma)ganligi, davlat xaridining boshqa ishtirokchilari bilan aloqadorligi singari ko'rsatkichlar ochiq axborot manbalari yordamida monitoring qilib borilmoqda va ma'lumotlar belgilangan tartibda Xarid komissiyasiga yetkazildi.

Yuqoridagi talablarga muvofiq 2025-yil umumiy hisobot davrida bank tomonidan e'lon qilingan **31 ta** tanlov tender savdolarining qatnashgan kontragentlar tekshiruvdan o'tkazilganda, **7 ta** kontragentlarda turli darajadagi kamchiliklar borligi (asosiy faoliyati tender jarayonlariga mos kelmasligi, hujjatlarining to'liq shakllantirilmaganligi, soliq qarzдорligi mavjud ekanligi, ishlarni bajarish uchun mutaxassis xodimlar yetishmasligi kabi holatlarning mavjudligi) aniqlandi, shuningdek, 2 ta lot bo'yicha xarid jarayonlarida ishtirok etgan **2 ta** kontragentlarda affillanganlik holat aniqlanib, har ikki holatda ham Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati xulosasiga asosan Xarid komissiyasi tomonidan o'zaro affillangan shaxslar xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatildi. **2000ga yaqin** kontragentlar bo'yicha preventiv o'rganishlar amalga oshirildi.

Ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish.

Bank tizimiga nomzodlarni ishga qabul qilish va rotatsiya qilish jarayonida Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmatining monitoringi nazorati yo'lga qo'yilgan. Xodimlar bilan munosabatlarni tartibga solish jarayonida Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati yo'nalishida bir qancha ishlar amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan.

Birinchidan, nomzodlarni hujjatlarini elektron shaklda qabul qilish uchun bankning veb-sayti orqali avtomatlashtirilgan ariza yuborish mexanizmi joriy etildi;

Ikkinchidan, nomzodlarni ishga qabul qilish davomida, alohida tekshiruv jarayoni yo'lga qo'yilgan. Ushbu tekshiruv davomida, nomzodning xodimlar yoki rahbar xodimlar bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi, tizim bilan aloqadorligi dastlabki ravishda o'rganiladi.

Uchinchidan, nomzodlarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha test sinovlarini inson omilisiz, avtomatlashtirilgan onlayn formatda tashkil etildi;

To'rtinchidan, nomzodlarni ishga qabul qilish suhbat natijalariga ko'ra, bank kollegial organi Kasbga muvofiqlikni aniqlash komissiyasi tomonidan amalga oshirilishi joriy etildi. Bugungi kunda barcha nomzodlarni ishga qabul qilish va lavozimdan lavozimga o'tkazish bevosita komissiya qarori asosida amalga oshiriladi;

Beshinchidan, nomzodlar belgilangan tartibda ishga qabul qilishga tavsiya etilganidan so'ng ular bilan tuziladigan mehnat shartnomalarining loyihasi qaytadan ko'rib chiqilib, korruption xatti-harakatlarni sodir etmaslik xodimning majburiyatlari sifatida kiritildi. Shuningdek, barcha xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzilish davomida, avtomatlashtirilgan holda Bankning "Korruptsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish Siyosati" bilan tanishtirish tizimi joriy etilgan.

Shu bilan birga tizimda ishlovchi xodimlarning lavozim majburiyatlariga va har bir tarmoqning nizom va ichki idoraviy qoidalariga "Korruptsiyaga qarshi kurashish bandi" ham qo'shib chiqildi.

Shuningdek, mazkur yo'nalishda KMAK jarayonlarida Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimlarining qatnashishi orqali doimiy nazorat ishlari olib borildi.

Joriy yil umumiy hisobot davrida, Bosh bank **26 ta departament va mustaqil boshqarmalari, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislari tarkibiy bo‘linmalarida lavozimdan lavozimga o‘tgan xodimlar va ishga qabul qilingan **389 nafar** nomzodlar tekshiruvdan o‘tkazildi.

Bank xizmatlarida inson omilini kamaytirish va xodimlarni ishga olishda shaffoflikni ta‘minlash “Turonbank” ATBda Korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlandi.

V. Ta‘lim va kommunikatsiya:

Bank tizimida xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ularning huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirish hamda ularda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida 2025-yilda o‘quv-seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha reja-dastur tasdiqlangan va har oyda **Bosh ofisning 26 ta departament va mustaqil boshqarmalari, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislari tarkibiy bo‘linmalarining **1,5 ming nafarga** yaqin rahbar va xodimlari ishtirokida bevosita komplaens ofitserlar ishtirokida hamda onlayn shaklda Korrupsiyaga qarshi kurashish mas‘ul xodimlari ishtirokida o‘quv-seminarlar o‘tkazildi.

2025-yil umumiy hisobot davrida barcha bank xodimlari bilan muntazam tushuntirish ishlari o‘tkazilib, korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish va ularni sodir qilishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarni huquqiy ongini oshirish hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning boshqa ichki qoidalariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Olib borilgan o‘quv seminarlarda **O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida** belgilangan korporativ etika va odob-axloq qoidalariga rioya etilishi hamda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorning axloqiy qadriyatlari va Bankning boshqa ichki qoidalariga qat’iy va so‘zsiz rioya qilishga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish, xodimlarni Bankda amal qiluvchi korrupsiyaga qarshi kurash taomillari, talablari va tartib-taomillari bilan tanishtirish, Korrupsiya mohiyati, uning jamiyat hayotining turli sohalari, Bankning funktsiya va tartib-taomillarida paydo bo‘lishi shakllari va o‘ziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlarini to‘g‘risida umumiy tasavvurni shakllantirish, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish qobiliyatini shakllantirish, korrupsiyaviy xulq-atvor, Bankning korporativ etika va odob-axloq qoidalarini buzilishiga nisbatan toqatsizlikni namoyon qilish kabi muhim vazifalarga e‘tibor qaratildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tajriba almashish maqsadida **Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati** mas‘ul xodimlari seminar va boshqa tadbirlarda faol ishtirok etishi ta‘minlandi.

Bank Boshqaruv Raisining korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish yuzasidan xodimlar va fuqarolarga yo‘llagan murojaatlari bankning rasmiy sahifalarida joylashtirildi. Bank tizimiga ishga qabul qilinayotgan yangi xodimlar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Huquqni muhofaza qilish organlari akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan **“Virtual akademiya”da** va Bankning maxsus maxsus **iSpring** elektron o‘quv dasturi hamda tasdiqlangan reja-grafika asosida muntazam o‘qitilib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini Bank faoliyatida joriy holatini chuqurlashtirish maqsadida Bosh bank hamda bank xizmatlari markazlarining xodimlari uchun mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda seminar treninglar va davra suhbatlari tashkil etilishi yo'lga qo'yildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida zaruriy bilimlarni berish va murosasiz munosabatlarni shakllantirish maqsadida, o'qitish dasturi qabul qilingan bo'lib, mazkur dasturga asosan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan:

Bankning Bosh ofisi tarkibiy bo'linmlari, BXM va BXOlarning **1,5 ming nafarga** yaqin xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitishdan o'tkazildi. Xodimlarning bilimlarini tekshirish yuzasidan test sinovlari olindi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumot:

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan tashkil etilgan "Tezkor liniya" ishonch aloqa kanallari orqali murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish tartibi belgilangan bo'lib, umumiy hisobot davrida 117 ta murojaatlar qabul qilindi. Ulardan korrupsiya faktlari va manfaatlar to'qnashuviga oid **4 ta (1 ta anonim)** murojaatlar ekanligi aniqlanib, ushbu murojaatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlari natijasida korrupsiyaviy huquqbuzarliklar aniqlanmadi va xizmat tekshiruvi natijalari yuzasidan tegishli choralar amalga oshirildi.

Xususan, aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiya faktlari va manfaatlar to'qnashuviga oid xabarlardan:

Toshkent shahridan **2 ta murojaat** (telegramm-bot orqali va Agentlik ishonch telefoni orqali);

Andijon viloyatidan **1 ta murojaat** (yozma shaklda);

Jizzax viloyatidan **1 ta anonim murojaat** (ishonch telefoni orqali).

Shunindek, Bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida keng jamoatchilikka muntazam xabardor qilish maqsadida bankning rasmiy veb-saytida maxsus sahifa, elektron pochta, ishonch telefoni va telegram bot kanallari ishlab turibdi hamda **Bosh ofis, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislarida Korrupsiyaga qarshi kurashish bank burchaklari tashkil etildi. Ularda bank aloqa kanallari haqidagi ma'lumotlar, jumladan

- anticorrupt@turonbank.uz elektron pochta;
- **turonbank.uz** komplaens xizmatiga murojaat;
- **@turonbankanticor_bot** telegram boti;

• fuqarolar, mijozlar va xodimlardan korrupsiya holatlari bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish bo'yicha **(71) 244-28-89** – bank ishonch telefoniga oid flayerlar, QR kodli table tendlar hamma uchun ko'rinadigan qulay joylarga joylashtirildi.

Shu bilan birga, Bankning rasmiy sahifalari orqali muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki qoidalar, ma'lumotlar, so'rovlar, uslubiy va axborot materiallari doimiy ravishda joylashtirib borilishi ta'minlandi.

Bankning korrupsiya haqida xabar berish kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarda ko'tarilgan masalalar, aloqa kanallari samaradorligini baholash va ularning doimiy faolligini ta'minlash maqsadida, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan tahlil va hisobot ma'lumotlari Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruviga kiritildi. Yig'ilishlarda yuqoridagi masalalar keng muhokama qilinib, zarur chora-tadbirlar amalga oshirilishi ta'minlandi.

VII. Monitoring va nazorat:

2025-yil umumiy hisobot yakuniga ko'ra:

OAV va ijtimoiy tarmoqlarda bank xodimlarining korrupsion xatti-xarakatlari haqida ma'lumot mavjud emas;

barcha aloqa kanallari soz va ish faoliyatida;

bankda aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar reestri yuritilgan;

korruptsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha doimiy ravishda tushuntirish va targ'ibot ishlari amalga oshirildi.

2025-yil uchun mo'ljallangan yillik nazorat tadbirlari rejasiga muvofiq hisobot davri davomida **Bosh ofisning 26 ta departament va mustaqil boshqarmalari, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislari tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi tartib-taomillari bo'yicha monitoring o'tkazilgan. Xususan, Bank tizimida o'tkazilgan monitoringlar hududlar kesmidagi holati quyidagicha:

Bosh ofis tarkibiy bo'linmalari va mustaqil boshqarmalari;

Toshkent shahridagi **"Toshkent shahar BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Toshkent viloyatidagi **"Zangiota BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Andijon viloyatidagi **"Andijon BXO"** tarkibiy bo'linmalarda;

Namangan viloyatidagi **"Namangan BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Farg'ona viloyatidagi **"Farg'ona BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Sirdaryo viloyatidagi **"Sirdaryo BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Jizzax viloyatidagi **"Jizzax BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Samarqand viloyatidagi **"Samarqand BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda hamda **"Biznesni rivojlantirish markazi BXM"**da;

Buxoro viloyatidagi **"Buxoro BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Navoiy viloyatidagi **"Navoiy BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Xorazm viloyatidagi **"Xorazm BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi **"Qoraqalpog'iston Respublikasi BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Qashqadaryo viloyatidagi **"Qarshi BXM"** va **"Shaxrisabz BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda;

Surxondaryo viloyatidagi **"Surxandaryo BXM"** va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari BXOlarda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati va tashqi auditorlar bilan o'tkazilgan monitoring va nazorat tadbirlari natijalariga ko'ra "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi va "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturida belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilinib, natijalar ko'rib chiqish uchun **Bank Kuzatuv kengashiga** kiritildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari:

Joriy yil umumiy hisobot davridagi tahliliy ma'lumotlariga muvofiq, **Bosh ofisning 26 ta departament va mustaqil boshqarmalari, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislarida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi to'g'risidagi faktlar aniqlanmadi.

Shuningdek, umumiy hisobot davrida:

xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha belgilangan tartiblar to'liq bajarildi;

korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash jarayonlari doimiy ravishda amalga oshirildi va aniqlangan ehtimoliy xavf omillarining oldini olish choralari kuchaytirish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi;

Bankning ichki nazorat tizimi doirasida muntazam o'tkazilgan o'rganishlar, tematik tekshiruvlar hamda profilaktik tadbirlar yuqori intizomni ta'minlagan holda, korrupsion holatlarga yo'l qo'yilmasligini tasdiqladi;

xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi madaniyatni oshirish maqsadida o'quv-seminarlar, targ'ibot tadbirlari va maxsus treninglar tashkil etildi.

Natijada, Bank tizimida korrupsiyaviy xavf va qoidabuzarliklar bilan bog'liq faktlarning oldini olish samaradorligi ortdi.

IX. Xulosalar:

O'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida olib borilgan chora-tadbirlar izchil, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni baholash hamda bartaraf etishga qaratilgan mexanizmlar samarali joriy etilgan bo'lib, bu jarayonlar bankning barcha tarkibiy tuzilmalarida bir xil yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, bankning **Bosh ofisning 26 ta departament va mustaqil boshqarmalari, 15 ta** hududiy bank xizmatlari markazi va **51 ta** bank xizmatlari ofislari tarkibiy bo'linmalarida "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi"ning samarali faoliyati ta'minlanib, ushbu tizim orqali xodimlarning xizmat faoliyatida qonuniylik, halollik va shaffoflik tamoyillariga rioya etilishi ustidan doimiy monitoring olib borilmoqda. Shu bilan birga, xodimlar o'rtasida halollik madaniyatini oshirish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, shuningdek, ochiq va shaffof boshqaruv muhitini shakllantirishga qaratilgan kompleks tashkiliy, huquqiy va profilaktik chora-tadbirlar izchil amalga oshirilgan.

Tahlil natijalari avvalgi davr ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, korrupsiyaviy xavf holatlarini aniqlash holatlari sezilarli darajada kamayganini, xodimlarning Odob-axloq qoidalariga rioya etish darajasi esa barqaror oshib borayotganini ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida, bank tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim tarkibiy bo'linmalarda profilaktik nazorat mexanizmlarining samaradorligini yanada kuchaytirish, shuningdek, xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi madaniyatni muntazam ravishda targ'ib qilish va tushuntirish ishlarini kengaytirish zarurligi ham aniqlandi. Mazkur chora-tadbirlarning izchil davom ettirilishi bank tizimida korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, xodimlar mas'uliyatini oshirish hamda bank faoliyatining ochiqligi va ishonchliligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi:

Yaxshilash bo'yicha taklif	Yaxshilash natijasi	Yaxshilash uchun zarur bo'lgan resurslar
2026-yilda ham korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va talablari bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirish	Yanada takomillashtirilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi	Talab etilmaydi
“Turonbank” ATB tizimida ISO 37001:2025 xalqaro standarti talablariga muvofiq hamda Virtual akademiyaning maxsus chuqurlashtirilgan kurslarda bank xodimlarini bilim va ko'nikmalarini oshirish	Korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarga mos va milliy qonunchilik hujjatlari asosida xodimlarning bilimlari oshirilganligi	O'qitish bilan bog'liq xarajatlar
Bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va talablari bo'yicha nazorat va monitoring qilish jarayonlarini amalga oshirishda raqamli texnologiyalari (suniy intellekt AI)dan foydalanish amaliyotini yo'lga qo'yish	Inson omilining qisqarishi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kamayishi	Dasturiy ta'minot
Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish maqsadida bank mas'ul xodimlarning rivojlangan mamlakatlarga o'quv-tanishuv safarlarini tashkil etish	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani bank tizimiga qo'llash	Xizmat safari va o'qitish bilan bog'liq xarajatlar